



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 11-son.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПЕРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
TEACHING

LANGUAGE AND LITERATURE
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANİYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumir MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2021.23.11. da topshirildi. Ofset ushida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasini. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3600 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

Я ПЕРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU	
Yorqin ODILOV. Istiqloq yillari o'zbek lug'atchiligiga chizgilar	
Ilhom NURMUTOV. Muallif punktuatsiyasi va maktab darsliklarida tinish belgilarining o'qitilishi muammolari	
DARS - MUQADDAS	
Ruxiya SHAYMANOVA. Harakat va holat fe'llari.....	9
Ro'zmat ISMOILOV. Qo'shma, juft va takroriy sifatlarining yasalishi va imlosi	1
TAHLIL	
Dildor NURMUHAMEDOVA. Nutqiy kompetensiya: o'qib tushinish ko'nikmasini rivojlantirish	1
Mohigul FOZILOVA. Adabiy - nazariy kompetensiyalar xususida	1
Qurdoq QAHRAMONOV. Umarali Normatovning munaqqidlik mahorati	1
Dilorom TOSHPULATOVA. Author's outlook on the factors of poetic expression	
Elmurod NASRULLAYEV, Halima SHUKUROV. Navoiyning tasavvuf ta'limotiga munosabati	
Munavvara XIDIROVA. Badiiy so'z Tog'ay Murod talqinida	22
Abdumurod NAMOZOV. Xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda chet el tajribasi hamda fanlararo bog'lanish samarasi.....	23
TARJIMASHUNOSLIK	
Muqaddas OQMAMATOVA. Cho'lpon she'rlarida milliy-madaniy frazeologizm	24
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Saodat QAMBAROVA. Adabiyotdan blok darslar qanday tashkil etiladi?	
Shakhlo BOTIROVA. Innovative cluster of pedagogical education as a new priority	
Feruz KATTAEVA. The concept of sociocultural competence and its formation	
TADQIQOTLAR	
Sevara YOQUBOVA. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsur tushunchasi va uning shaxsiy yozishmalarida voqe'lanish omillari.....	
Musajon TOJIBAYEV. Lingvopoetik paradigma va gerbarizm	34
Dilfuza TUXLIYEVA. G'azal janri va ontologik tahlil metodi	37
Zilola SALISHEVA. Rus guruhi talabalarining o'zbek tilidagi bog'lanishli nutqini o'stirishda audiomashqlarning o'rni	39
KICHIK TADQIQOTLAR	
Dilafroz SARIMSOQOVA. Innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: Keys stadi metodi	
Alisher MAHMUDOV. G'arb dramaturgiyasida sharqona sujet va g'oyalari transformatsiyasi	43
Lola KARSHIEVA, Muborak KATTAEOVA. Analysis of methods, approaches and techniques in teaching idioms to pre-service teachers	4
Saidakhon MAVLANOVA. Literature and literature teaching methodology: harmony and difference	47
METODIKA. ОПЫТ	
Mukarrama BERRIEVA. Особенности числительных при изучении лексической темы «Семья – источник нравственных отношений»	
Амина ФАТТАХОВА. Повесть А.А.Ганиевой «Салам тебе, Далгат!»	
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Азиза БЕДИЛОВА. Развитие аналитико-синтетических умений у учащихся при изучении несвободных словосочетаний в пословицах	53
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Феруза КОДИРОВА. Активная цветовая лексема в русском и узбекском языках	56
Номира ИЗБАЕВА. Билингвизм как многоаспектное понятие языка	
СОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Азиза МУМИНОВА. Средства выражения побудительности в разносистемных языках	59
Маржан КАМБАРОВА. Понятия человек-труд, труд-человек в пословицах английского, русского, узбекского и казахского языков.....	60
НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА	
Адиба ДАВЛАТОВА. Роль языка в развитии поэтического мышления	62
ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ	
Феруза САИДОВА. Развитие финансового образования и повышение финансовой грамотности молодого поколения	63
Чарос АБДУЛЛАЕВА. Рекламный дискурс в социально-культурном контексте	6
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Барно КАДИРОВА. Астрокосмосимы в газелях Алишера Навои	
Шахиста ТАХИРЖАНОВА. Система референций эпического текста и эпическая традиция	
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Азизхон РАХМОНОВ. Задачи, особенности, отличительные черты и классификация кейс-метода	7
Альбина РАХМАНОВА. Влияние коранических реалий на произведения И.А.Бунина	73
Эльвина АЛИЕВА, Саодат ИНОЯТОВА. Знаки препинания в графической организации парцелированных конструкций в стихотворении М.Цветаевой «Мне нравится, что вы больны не мной...»	7
Русана СИНЖАПОВА. Производное слово в свете теории концептуальной интеграции	7

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.



Saodat QAMBAROVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi*

ADABIYOTDAN BLOK DARSLAR QANDAY TASHKIL ETILADI?

So'nggi paytlarda turli fan o'qituvchilari hamkorligida blok (biror narsaning yaxlit qismi¹) darslar tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. *Blok dars* muayyan fanlar o'quv dasturi mazmunining muvofiqligini uyg'unlashtirish natijasidagi integratsiyalashgan ta'lim shaklidir. Integratsiya (integer – butun so'zidan) ta'lim-tarbiyaga innovatsion yondashuv bo'lib, fanlarning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri asosida o'qitish sifatini kafolatlash, fanlararo uyg'unlikning yuqori darajasiga erishilganlik ma'nosini ifodalaydi. Integratsiya borliqdagi voqea-hodisalar, ularga oid bilim va tushunchalarni kompleks holda tadqiq qilishga o'tish jarayonidir.

Pedagogik integratsiya muammolariga A.S.Belkin, V.D.Semyonov, I.P.Yakovlev, G.I.Ibragimov, R.Safarova, P.Musayev, R.Ahliddinov, Yu.Mahmudov, B.Abdullayeva, K.Mavlonova kabi xorij va o'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida turli jihatdan yondashilgani kuzatilsa ham ularda integrativ mashg'ulotlarning struktura, funksiya va mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan. Yangicha talqindagi blok darslarning afzalliklari tadqiqotchi M.Inomovning fikricha "hayotdagi turli xil voqea va hodisalarni, olam haqidagi bilimlarni bir qolipdan turib emas, balki ularni kompleks yaxlit holda o'rganishga o'tish demakdir"².

Darhaqiqat, blok darslarni o'tkazish puxta tayyorgarlik va ijodiy yondashuvni talab qiluvchi jiddiy pedagogik tadbir hisoblanadi. Bu turdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini egallash, shaxsiy tashabbus ko'rsatish bilan bog'liq ehtiyojlari qondiradi. Blok dars bosqichlari dars mavzusi va shaklini belgilash; ma'ruza, referat, axborot mavzulari bo'yicha topshiriqlarni individual yoki guruhlar bo'yicha taqsimlash; mavzuga tegishli umumiy usullarni rejalashtirishdan iborat bo'ladi.

Blok darslarda turdosh fanlar uyg'unligi ta'minlanib, yaxlit tarzda umumiy mavzu asosida bir butun muammoli vaziyatlar yuzaga keltiriladi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida qaysi fanlar uyg'unlashuviga asoslangan bo'lsa, shu soha mutaxassisi bilan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat tashkil etiladi. Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda bloklashtirish ko'zda tutilgan fanlar o'quv dasturlaridagi uyg'un jihatlarni birlashtirish, mavzularning ketma-ketligi, ularning o'zaro muvofiqligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Bunday turdagi darslarning samaradorligi bir necha o'quv predmeti yoki fanlarga oid dastur, bob yoki mavzularni to'g'ri integratsiyalash, o'quv jarayonini loyihalashtirishda in-


novatsion texnologiyalarni qo'llash, ta'lim subyektlari o'rtasidagi ijodiy munosabatlarga asoslanishda namoyon bo'ladi.

Bloklashtirilgan mashg'ulotlar imkoniyati va muvaffaqiyati o'qituvchining matn bilan ishlash tajribasi, o'quvchilar salohiyati, tayyorgarlik darajasi; mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etishga oid metod va usullarning qay darajada to'g'ri tanlanganiga bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, integratsiyalashgan darslar uchun tanlangan mavzular dolzarb, ko'p muammoli, fanlararo aloqa esa tabiiy bo'lishi lozim. Ikki yoki undan ortiq fanlarning yagona mavzu yoki umumiy masalalar atrofida birlashuvi o'quvchilarning o'quv-biluv darajasini oshirish, bilimlarni sintez qilishini faollashtirish, dunyoning yaxlit manzarasi, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabat va bog'liqlikni anglash tarzini qaror toptiradi. Natijada, bu aloqalar bir butun va konkret misollar doirasida ko'rib chiqiladi.

Mantiqiy izchillik integratsiyalashgan dars bosqichlariga oid asosiy xususiyatdir. Shu bois har bir bosqichga oid real xususiy vazifalarni rejalashtirish va ko'zda tutilgan maqsadga erishishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan juz'iy masalalarni e'tibordan chetda qoldirmaslik muhim hisoblanadi. Buning uchun: fanlarni to'g'ri integratsiyalash; bloklashtiriladigan fanlarning o'quv dasturlari bilan batafsil tanishish; mavzular o'rtasidagi tutash nuqtalarni aniqlash; dars maqsadini davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq belgilash; ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishda samarali bo'lgan shakl, usul va vositalarni tanlash; darsni loyihalashtirish kabilar e'tiborga olinishi zarur.

Yetarli pedagogik tajribaga ega o'qituvchilargina bu turdagi darslarga murojaat qilishi mumkin. Masalan, adabiyotdan tashkil etiladigan blok darslarni aniq, politeknik yoki estetik yo'nalishdagi fanlar bilan uyg'unlashtirish moddiy olam xossalari, jismlarning tuzilishi, tabiat hodisalarining sodir bo'lish jarayonini ilmiy yoki badiiy talqin etish qatorida muayyan xalqqa xos madaniyat, san'at, an'ana va qadriyatlarni o'zlashtirishda katta imkoniyatlarga ega. Adabiyot va tasviriy san'atni integratsiyalashga doir blok darslar bu ikki fan doirasidagi o'quv materiallarini uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning "badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qilish; ... rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila olish va so'z bilan ifodalash"³ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga muayyan adib shaxsiyati yoki ijodiga xos xususiyatlarni anglatishda, tabi-



iyki, ko'rgazmalilik alohida o'rin tutadi. Bunda tabiiy ko'rgazmalilik qatori film, musiqa, rang-tasvir namunalari o'quvchilar sezgilari (ko'rish, eshitish, teri va organik)ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bu borada pedagog olim Y.A.Komenskiy ta'kidlaganidek, "Mumkin bo'lgan hamma narsa tuyg'ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak"⁴. Shu nuqtayi nazardan olinganda o'rganilayotgan asarning tabiati taqozo qiladigan yondashuvlar samarali hisoblanadi. Darsni o'quvchilarning o'quv materiallari zahiridagi rang-baranglikni bir butunligicha ko'ra bilish, ma'lumning noma'lum jihatlarini izlab topish hamda bilishdan yana bilish sari intilishga yo'naltirish maqsadini ko'zlab loyihalashtirish zarur. Shuningdek, ko'rilayotgan masalaga oid obyektlarni to'g'ri belgilash, ulardagi qiyoslanayotgan jihatlar yuzasidan tushuncha hosil qilish masalasi ham e'tiborda turadi.

O'quvchilarning badiiy asar va rang-tasvir namunalari sujetidagi uyg'unlikni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishda taniqli ijodkorlar Rauf Parfining "Tong otmoqda"⁵ va Akmal Nurning "Munavvar tong" asarlari mavzu doirasi, g'oyaviy va tarbiyaviy xususiyatlariga ko'ra o'rganishga mos keladi. Ta'kidlash joizki, "Munavvar tong" asarini manzara janridagi asarlarga misol sifatida o'rganish ta'limning turli bosqichlarida tasviriy san'at asarlarini o'qish, ularning mazmunini analiz-sintez qilish bilan bog'liq bo'shliqlarni to'ldirishga zamin yaratadi.

"Tong otmoqda" she'ri mazmuniga e'tibor qilinsa, borliqning erta tongdagi tasviri mo'jaz satrlarda sodda va noodatiy tashbehlarda tajalli topadi:

Tong otmoqda, tong o'qlar otar, Tong otmoqda, quyosh – zambarak. Yaralangan Yer shari yotar, Boshlarida yashil chambarak.

Bir qarashda Quyosh – "zambarak", nurlari undan otilgan "o'qlar". Hayot, tiriklik ramzi – "yashil chambarak" ona zamin kengliklarida kurtak yozgan dov-daraxtlar, o't-o'lanlar tasvirida o'z in'ikosini topgan. Ikkinchi banda yashashdan maqsad, umr mazmuni, kelajakka

ishonch, yangi-yangi maqsadlar sari intilish haqidagi falsafaviy mushohada mujassamligini sezish mumkin:

*Tong otmoqda, musaffo tongga
Yuragini tutar odamlar.
Shu tong uchun kelgan jahonga,
Va shu tong deb o'tar odamlar.
Tong otmoqda...⁶*

Tasviriy san'at darslarida manzara janrini o'rgatish jarayonida shakl, tus va ranglar mutanosibligi; daraxt va o'simliklar bargi, guli va mevalarini ifodalashdagi o'ziga xosliklar; ranglarning kishilar hayotidagi o'rni; asosiy va qo'shimcha ranglar; axromatik va xromatik ranglar; iliq va sovuq ranglar; rang kontrasti kabi tushunchalar mazmuni sinflar kesimida reja asosida yoritib boriladi. Bu borada DTS va o'quv dasturlarida o'quvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan malaka talablari belgilangan.

"Munavvar tong" asarini tahlil qilishda dastlab rassom ilgari surgan g'oya, kartinani yaratishda tayanilgan mezonlar haqida o'quvchilarda tasavvur uyg'otish zarur. So'ngra quyidagilar ustida ish olib borish maqsadga muvofiq:

- 1) voqelikning badiiy vositalar yordamida aks ettirilishi bilan tanishish;
- 2) sujetning tarkibiy qismlarini ajratish;
- 3) elementlarning ramziy ma'nosini yoritish;
- 4) tasvirning sxematik joylashuvini o'rganish;
- 5) asarning badiiy alifbosi xususida tushunchalar hosil qilish.

Kartina sujetida tabiat manzarasi, daraxtlar, daryo, ufq chizig'i, qushlar va o'simliklar muayyan tartibda aks ettirilgan. Zero, "manzara janrini ishlashda yaqin, o'rta va olisdagi narsalar, asosan, uchta ko'rinishga joylashtiriladi. Yaqin ko'rinishdagi narsalarni aniqroq, olisdagi narsalar ochroq chiziladi. Bu ko'rinishlarda to'g'ri tasvirlash uchun, avvalo, manzarani sinchiklab kuza-tish va uni tasvirlaganda uzoqdagi narsalarning yaqindagiga nisbatan kichik bo'lishini hisobga olish kerak va havo perspektivasi qoidasiga ko'ra uzoqdagi narsalar rang va tus jihatdan yaqindagilarga nisbatan xiraroq va och ko'rinadi"⁷.

Mazkur elementlarning ramziy ma'nosini aniqlash navbatdagi jarayonda amalga oshiriladi. Ikki ta yirik, so'ngra bitta navnihol daraxt mantiqiy izchillikda old planga chiqarilgan. Daryo suvining bir maromda ilgirilashi osoyishtalik, havorang kolorit esa borliqning sokinligi, tongdagi shaffollik belgisidir. Asar kompozitsiyasi assimetrik tarzda ishlangan bo'lib, o'ng tomonidagi elementlar o'ziga zalvorli vazifani olgan. Jumladan, ketma-ketlikdagi juft daraxtni ota-onaga, ulardan keyinroqdagi yosh niholni farzandga qiyoslash mumkin. Demak, bu uchlik oila ramzi. Farzand hayot davomchisidir.

Oilaga, Vatanga va tabiatga muhabbat g'oyasi ona timsolidagi daraxt shoxchasidan qo'nim topgan ikki ta qush obrazi zimmasiga yuklangan. Tong – vaqt

(umr)ning takroriy ibtidosi, yangilanish in'ikosi. Daryo – hayot, suv – uning davomiyligi. Umr o'lchovi ufq chizig'ida namoyon bo'lgan. Tabiat Vatanga mengzalgan. Xotirjamlik nishonasi sifatida havorang tanlangan. Kartnadagi ramziylik mazmuni xususida soha mutaxassisi S.Bulatovning fikrlari e'tiborga molik: "Sokin suv hayotning tez, bir zumda o'tib ketishini anglatadi, ya'ni insonlarni hayotning, vaqtning qadriga yetishga undaydi. Tong yangi kunni, tiriklikni va insonga har bir kunning qadriga yetish lozimligini bildiradi. Ufq chizig'i ... inson umri ham chegaralanganligini, har bir narsaning chegarasi, oxiri borligini anglatadi. Tabiat esa Vatan, diyorni anglatadi. Havorang esa tinchlik, osoyishtalik va sokinlikka ishora qilgan. O'simliklarda esa, borliqning qanchalik go'zal yaratilganligi, ularni ko'z qorachig'idek asrash ifoda qilgan"⁸.

Garchi manzarada tong oqarishidagi muhim omil Quyosh nurlari jilolanmagan bo'lsa-da, uning funksiyasi sujet chizig'ida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu borada S.F.Abdirashidov to'g'ri ta'kidlagan: "Atrofimizni o'rab turgan tabiat nihoyatda go'zal va jozibali. Tabiiy yorug'lik manbasi – quyosh nurlari ostida har bir narsa o'zining muayyan rangiga ega bo'lib, yorqin tuslarda ko'rinadi. Quyoshning oq yorug'ligi aslida murakkab bo'lib, olamning turfa go'zalligi, ya'ni bahorgi may-salar va yaproqlarning yashilligi, osmonning moviyiligi, gullarning rang-barangligi – hammasi shunga bogliq"⁹.

Ko'rinadiki, musavvir tong tasviriga soflik, munavvarlik, tinchlik, birdamlik, mas'ullik kabi ezgu sifatlarni ustalik bilan jo qila bilgan. Bu jihatlar o'quvchi tasavvurida yorqinroq aks etishi uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz:

Mushtarak jihatlar ifodasi	Qiyosiy tahlil	
Janri	She'r	Manzara
Sarlavha	Tong otmoqda	Munavvar tong
Muallif pozitsiyasi	Orzu-umidlar, his-tuyg'ular so'zlarda tashbehtar orqali bo'y ko'rsatgan.	Ko'tarinkilik, yorug'lik va go'zallik ranglar va shakllarga ko'chirilgan.
Detallar	Yer shari (olam, harakat), bepoyon kengliklar (yashil chambarak): giyohlar va gul-chechaklar. Bunda tug'ilish, yashamoq, orzu, maqsad va unga intilish ma'nosi mujassam.	Ufq, daraxtlar, daryo, qushlar: umr zarvaraqlarini osudalik, mehr-oqibat, birdamlik va muhabbat kabi tuyg'ular bezaydi.
Kolorit (sovuq ranglarda)	Yashil – hayot demak.	Havorang – toza ruh, ertalabki salqinlik.
Mazmun	Musaffo tong insonlar qalbiga ezgulik urug'larini sochadi, yangi marralar sari ilhomlantiradi.	Muhabbat, sadoqat, nafosat va pokizalik munavvarlik nomi ostida yaxlit ma'no kasb etgan.
Xulosa	Hayotning, yon-atrofdagi insonlarning qadriga yetish zarur. Go'zallikni his etish va asrash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, bir-birini e'zozlash insoniylikning muhim shartidir.	

Demak, ikki yoki undan ortiq mazmunan yaqin fanlarni uyg'unlashtirishga oid blok darslar fan mazmunini to'g'ri integratsiyalash, dars loyihasini puxta tuzish, ta'lim subyektlari o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni

ta'minlash, o'qitishning samarali shakli, metod va vositalarini oqilona tanlash va ularni amalda qo'llash hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga optimal shart-sharoit yaratadi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. B harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 161-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

² Inomova M. Darsning yangicha talqini // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2006. 50-bet.

³ Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinf. – Toshkent, 2017. 14 (774)-son, 230-modda. 123-bet.

⁴ Коменский Я.А. Великая дидактика. – Изб. Пед. сочинения. В 2-х томах. – Москва, 1982. – Т. 1. – С. 384.

⁵ Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinf. – Toshkent, 2017. 14 (774)-son, 230-modda. 125-bet.

⁶ To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. 2-qism. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 81-bet.

⁷ Kuziyev T. va boshq. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 41-bet.

⁸ Bulatov S., Po'latova M. Tasviriy san'at darslari jarayonida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. 2-son. 48-bet.

⁹ Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 187-bet.